

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Tursunova Malika Baxtiyor qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda fanlarni o‘qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish-ularda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish.

Kalit so’zlar: Innovatsiya, o‘qituvchi, interfaol metodlar, kompetensiya, kasbiy faoliyat, mustaqil o‘rganish, o‘qish, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiylarini rivojlantirishda boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlarida olib boriladigan mashg‘ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish lozim.

Dars jarayonini interfaol metodlar asosida olib borishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko‘rish mumkin: Talaba o‘qilibgina qolmay, mustaqil o‘qish, o‘rganish, ishslashga, o‘zlashtirishga o‘rgatiladi. Talabalarni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o‘zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o‘rgatiladi. Bizga yot fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o‘z nuqtai nazarini himoya eta olish ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, axborot – resurs markazlaridan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishslash orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining darsliklar bilan ishlashi, o‘qish, o‘rganish, konsept yozish, qo‘srimcha adabiyotlar va manbalardan foydalanib, mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmalarini egallahsga o‘rgatiladi.

Auditoriyadagi barcha talabalarni o‘z qobiliyatları darajasida o‘zlashtirishlari kafolatlanadi. Talabaning o‘zlashtirganligini, olgan bilimlarini kundalik hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko‘nikma va malakalari darajasi bilan belgilanadi. Professor-o‘qituvchi talabalar bilan interfaol metodlar asosida ishslashni o‘rganib, uni o‘z o‘quv - biluv faoliyatlariga olib kira olsalar, barcha talabalar deyarli bir xil natijalarga erishadilar.

Dars jarayoni interfaol metodlar asosida tashkil etilganda:

- talabalarning o‘zaro faolligi oshadi, hamkorlik, hamijodkorlikda ishslash ko‘nikmalar shakllanadi.
- o‘quv reja, dastur, ta’lim mazmuni, darslik, standart, me’yor, qo’llanmalar bilan ishslash malakalari shakllanadi.
- ta’lim mazmunini, matnini mustaqil mutoala qilish, ishslash, o‘zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.
- talaba erkin fikr bildirish, o‘z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

- eng muhimi o‘quv jarayonida didaktiv motivlar vujudga keladi. Ya’ni talabaning extiyoji, hoxish, istagi qondiriladi, dars qiziqarli kechayotganligi sababli, vaqt o‘tayotganini bilmay qoladi. O‘quv – biluv jarayonida talabaning shaxsiy manfaatdorligi oshadi. Bu holat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quv maqsadlariga intilishi va erishishida yuqori bosqichga ko‘taradi.

Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari.

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi.
- o‘z vaqtida talaba – professor-o‘qituvchi – talabalar orasida ta’limiy aloqalar o‘rnataladi.

O‘qitish usullari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh). O‘quv jarayoni o‘qish ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivasiyaga ega bo‘ladi. O‘zaro axborot berish, olish, qayta ishslash orqali o‘quv materiali yaxshi esda qoladi. O‘quv jarayonida o‘quvchining o‘zi o‘ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. Talaba uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo‘ladi. Har bir talabaning o‘zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o‘tilgan darslarda talaba faqat ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda talaba shaxsini rivojlantirish o‘zi – o‘ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Ya’ni talabaning:

- o‘zi mustaqil mutoala qilishi, o‘qishi asosida bilim olishi;
- o‘zini – o‘zi anglab yetishga, anglab tarbiya topishga;
- o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
- o‘quv mehnatiga mas’uliyat hissi bilan qarashga;
- o‘z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g‘animat bilishga;
- o‘quv mehnatiga o‘zida hoxish, istak uyg‘ota olishga;
- har qanday vaziyatda faollik ko‘rsata olishga;
- ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o‘rganmog‘i zarur.

Noan’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanishdan maqsad nima? Uning afzalliklari darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat? degan savolga quyidagicha xosilalar asosida javob berish mumkin.

1. Noan’anaviy o‘qitish eng sodda qulay usul.
2. Mustaqil fikrlashni o‘rgatadi.
3. Ko‘p tarmoqli.
4. Sodda va oson.
5. Bilim boyligini oshiradi.
6. Vaqtdan yutadi.
7. Qiziqarli o‘tadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Dunyoqarashni kengaytiradi.
10. Tafakkurni rivojlantiradi.
11. Talabalarning diqqat e’tiborini tortadi.

12. Har bir talaba bilan individual munosabatda bo‘ladi.
13. Xotirani kuchaytiradi.
14. Izlanishga chorlaydi.
15. Talabalarni o‘z ustida ishlashga chorlaydi.

O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga yetkazishdan iborat. Qachonki talaba tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki talaba malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo‘ladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda fanlarni o‘qitishning interfaol usullari asosida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikga erishishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir:

- Oliy ta’lim muassasalarida dars jarayonlarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish;
- Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari o‘rtasida interfaol metodlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o‘quv seminarlarini tashkil etish;
- ular tomonidan innovatsion texnologiya asoslarini puxta o‘zlashtirilishiga erishish;
- Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuv hissini tarbiyalash;
- Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarida innovatsion texnologik yondashuv asosida tashkil etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish;
- Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tomonidan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni interfaol metodlar asosda tashkil etilishiga erishish;
- Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining innovatsion texnologiya asosda pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish;
- Oliy ta’lim muassasalarida olib boriladigan dars jarayonining samaradorligini ta’minlash.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish malakasini shakllantirish quyidagi tamoyillar asosida erishiladi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlarida olib boriladigan mashg‘ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi yagona maqsadning qaror topganligi.
2. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlarida olib boriladigan mashg‘ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi harakatning izchil, maqsadga muvofiq, tizimli va uzlusiz amalga oshirilishi.
3. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlarida olib boriladigan mashg‘ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etishda mavjud shart-sharoit hamda sub’yektiv yondashuvlarni inobatga olish.
4. Pedagogik mahorat va iqtidorlarni erkin namoyish etish.
5. Yangi tajribalarni ommalashtirish.
6. Nazariy va amaliy faoliyat birligi.

7. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlarida olib boriladigan mashg‘ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etishda xorijiy mamlakatlarning donor tashkilotlari bilan hamkorlik va hokazolar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Жуманиёзова М.Т. Малака ошириш жараёнида ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашнинг педагогик асослари (тарих фани ўқитувчилари мисолида): пед.фун.ном. .. дисс. –Т.: 2007. – Б. 176.
2. Жўраев Р.Х., Ибрагимов Х.И. Педагогик жамоанинг инновацион фаолияти. // Халқ таълими. – Т.: 2004. -№2. – Б. 5.
3. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Тошкент: Истеъдод, 2008. – 180 б.
4. Слобатчиков В.И. Инновационные образование // Школьные технологии. –Москва: 2005. - №2. – С. 4.
5. Tursunova M.B. “Innovatsion ta’lim muhiti va uning paydo bo‘lishi” Respublika Ilmiy-amaliy konferensiya. Jizzax-2022.
6. Tursunova M.B. “Raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish”. TDPU ilmiy axborotnoma.